HUDUDLARDA “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA - “TURIZM” NI “START-UP” LOYIHA SIFATIDAGI ISTIQBOLLARI.

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

PhD, dotsent. University of Business and Science. O’zbekiston

E-mail: ikromk@mail.ru

Kosimov Bobir Abdigaparovich

Magistrant, University of Business and Science. O’zbekiston

E-mail: boburqosimov388@gmail.com

Annotatsiya: Hududlarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda turizmni o’rni alohida e’tirof etilishi lozim. Turizmni rivojlanishi shu hududga sayyohlar oqimi ko’payishini bildiradi, bu esa aynan o’sha hududga pul miqdori qo’shimcha kirib kelishi va savdo aylanmasi ko’payishini bildiradi. Xorijiy sayyohlar mamlakat eko-turizmiga va yashil makonlarga qiziqishi tabiiy. Bu esa tadbirkorlar uchun qo’shimcha savdo va xizmat ko’rsatish imkonini yaratadi. Agar bu xorijlik turistlar soni ko’payishi bilan bog’liq bo’lsa shu hudud uchun qo’shimcha valyuta tushumi va sayyohlik imkoniyatlari uchun reklama vazifasini ham o’taydi. Turizm- hududlar uchun “start-up” loyihasi vazifasini bajara olishining yana bir sababi, bu soha katta harajat talab qilmaydi, ayniqsa qadimiy qadamjolar va tabiat qo’yniga sayohatlar, yashil makonlar rivojlanishi o’sha hududlar uchun tayyor daromad manbayi bo’lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so’zlar: Yashil iqtisodiyot.Turizm, arxeologik yodgorliklar, istirohat bog’lari, madaniy meros obyektlari, agroturizm, gastronomik turizm, ichki turizm, turizmga investitsiya.

Аннотация: Отдельно следует отметить роль туризма в развитии зелёной экономики в регионах. Развитие туризма означает увеличение потока туристов в регион, а значит, и дополнительный приток денежных средств, и рост товарооборота. Вполне закономерно, что иностранные туристы

проявляют интерес к экологическому туризму и зелёным насаждениям страны. Это создаёт дополнительные возможности для предпринимателей в сфере продаж и услуг. Увеличение числа иностранных туристов также служит дополнительным валютным поступлением для региона и рекламой туристических возможностей. Ещё одна причина, по которой туризм может стать «стартовым» проектом для регионов, заключается в том, что эта сфера не требует больших затрат, особенно поездок к древним местам и природе, а развитие зелёных насаждений может стать для этих регионов готовым источником дохода.

Ключевые слова: Злёной экономики, туризм, археологические памятники, парки, объекты культурного наследия, агротуризм, гастрономический туризм, внутренний туризм, инвестиции в туризм.

Annotation: The role of tourism in the development of the green economy in the regions should be recognized separately. The development of tourism means an increase in the flow of tourists to this region, which means an additional influx of money into that region and an increase in trade turnover. It is natural that foreign tourists are interested in the country's eco-tourism and green spaces. This creates additional sales and service opportunities for entrepreneurs. If this is associated with an increase in the number of foreign tourists, it also serves as an additional foreign exchange earnings for the region and an advertisement for tourism opportunities. Another reason why tourism can serve as a "start-up" project for regions is that this sector does not require large expenses, especially trips to ancient sites and nature, the development of green spaces can serve as a ready source of income for these regions.

Keywords: Green economy, tourism, archaeological monuments, parks, cultural heritage sites, agritourism, gastronomic tourism, domestic tourism, investment in tourism.

Mavzuning o’rganilganlik darajasi.

Bundan bir necha yil avval Yangi O’zbekiston muhbiri Namangan viloyat turizmni rivojlantirish boshqarmasi boshlig’i – Ayubxon Babamirzayev bilan o’tkazgan suhbatida ma’lum bo’lishicha: Viloyatda mavjud turizm obyektlari soni 301 tani tashkil etadi. 24 ta ziyoratgoh, 242 ta madaniy meros obyekti, 152 ta arxeologiya yodgorligi, 98 ta arxitektura yodgorligi, 22 ta istirohat bog‘lari shular jumlasidan.

Bundan tashqari, Ziyorat turizmini yana-da rivojlantirish, sayyohlar oqimini ko‘paytirish maqsadida 2021-2026-yillar davomida yana viloyatdagi 23 ta ziyorat obyektlarida rekonstruksiya, ta’mirlash, infratuzilmani rivojlantirish loyihalari amalga oshirilishi xaqida ma’lum qilingan[1]. “O’zbekiston -2030” strategiyasida esa- xorijiy turistlar sonini- 15 millonga, ichki sayyohlar sonini- 25 millionga, ziyorat turizmi bo’yicha keladigan turistlar sonini esa – 3 million nafarga oshirish g’oyalari aks ettirilgan[2].

Iqtisodiyot fanlari Doktori, Professor, Isadjanov A.A. tomonidan keltirilishicha, 2023-yilda turizm tarmog‘i global yalpi ichki mahsulotning 9,1 foizini, ya’ni 9,9 trillion dollardan sal ko‘proqni tashkil etgan.

2034 yilga kelib, bu sektor butun iqtisodiy landshaftning 11,4 foizini tashkil etuvchi ва 16 trillion dollarni tashkil etib, global iqtisodiyotda munosib o‘rin olishi mumkin[3]. Ushbu natija va fikrlardan ham ko’rinib turibdiki, turizm sohasi yaqin kelajakda har qanday turizmni rivojlantirishga qulay bo’lgan hududlar uchun “start-up” loyihasi bo’la oladi.

Turizm xar bir mamlakatning Yashil iqtisodiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va dunyoning ko'plab mintaqalari farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muhim global va milliy sanoatdir. Hozirgi kunlardagi global siyosiy va iqtisodiy o’zgarishlar va tabiiy ofatlarga qaramay, hozirgi vaqtda turizm faol rivojlanishda davom etmoqda. Sayohatni tashkil etishning shakl va usullari o‘zgarib, turizmning yangi turlari, jumladan yashil o’rmonlar bilan qoplangan dam olish maskanlariga va tabiati chiroyli, xavosi toza tog’larga sayohat qilishga qiziqishlar

ortib bormoqda. Namangan viloyati ham “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarga ega. Viloyat to’gli hududda joylashganligi uchun shamol energiyasidan foydalanish imkoniga ega shuningdek, quyosh energiyasidan foydalanish uchun ham yetarli serquyosh makon hisoblanadi. Viloyatda turli xil dam olish maskanlari yaratish uchun ham yetarli tog’li, yashil daraxtzorli manzillar mavjud.

Namangan viloyati Farg’ona vodiysida joylashgan, yashil makon, havosi toza tog’larga boy, tabiati va tarixiy yodgorliklari hamda milliy an’analari bilan va o’ziga xos qadriyatlari bilan alohida ajralib turadigan hududlardan biri hisoblanadi. Turizm sohasida Namangan katta salohiyatga ega bo’lib nafaqat mahalliy balki horijiy sayyohlarni ham o’ziga jalb etib kelmoqda. Namangan viloyati tabiati betakror bo’lib, asosan tabiat qo’ynidagi oromgohlar, salqin dam olish maskanlari va ekoturizm yo’nalishlari sayyohlar uchun juda qiziqarlidir. Quyida Namangan viloyatining bir nechta diqqatga sazovor va sayyohlarni jalb etuvchi maskanlari xaqida to’xtalib o’tamiz:

Chodak dam olish hududi- tog’lar orasida joylashgan bu maskan toza havo va go’zal manzaralari bilan mashhur bo’lib, bu yerda tog’ tabiatini tomosha qilish, chodirlarda dam olish, tog’ sayyohligi va tabiat manzaralarini tomosha qilish imkoniyati mavjud.

Qo’ygoq tog’lari- ekoturizm va piyoda sayr qilish maskani. Sayyohlar bu yerda ajoyib tabiat manzaralaridan bahramand bo’lishlari mumkin.

Ayiqqapcha darasi- tabiatni sevuvchilar uchun joylardan biri bo’lib, buloqlar, bog’lar va chiroyli manzaralari bilan betakrordir.

Chust tumanida joylashgan G’ova qishlogi- bu maskan ham tog’lar orasida joylashgan bo’lib, betakror tabiat va tog’ manzaralariga ega. Bu maskan juda salqin va muzdek buloq suvlari bilan mashhur. Eng asosiysi, bu yerda sayyohlar uchun yetarlicha qulayliklar yaratilgan bo’lib, bir vaqtning o’zida ko’plab sayyohlar joylashishlari va dam olishlariga sharoitlar mavjud.

Bundan tashqari Namangan viloyati boy tarixiy merosga ham ega. Bu yerda ko'plab tarixiy obyektlar, majmualar va madaniy qadamjolar mavjud:

Mingbuloq ziyoratgohi- tarixiy shu jumladan diniy ahamiyatga ega muqaddas qadamjolardan biri.

Maxdum Eshon majmuasi- o'n to'qqizinchi asrda qurilgan, arxitektura o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan madaniy yodgorlik.

Chust tumanida joylashgan Xo'ja Abdurahmon Ibn Avf ziyoratgohi- qadimiy va mahalliy aholi uchun muqaddas ziyoratgoh bo'lib, bu maskan haqida ham turli rivoyatlar yuradi va bu yerga ham ko'plab ziyoratchilar tashrif buyurishadi.

Namangan viloyati shuningdek, hunarmandchiligi va madaniyati bilan mashhur. Bu yerda asrlar mobaynida davom etib kelayotgan hunarmandchilik an'analari nafaqat Respublika balki, jahon miqyosida ham mashhur hisoblanadi. Viloyatda to'qimachilik, kulolchilik va zardo'zlik an'analari ham keng tarqalgan. Namangan viloyati etnoturizm yo'nalishida ham keng imkoniyatlarga ega. Bular jumlasiga turli hil festivallar, bayramlarni aytish mumkin. Namangan gullar festivali esa butun dunyoga mashhur bo'lib, mana bir necha yildirki dunyoning turli nuqtalaridan sayyohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda[4].

Turizm xar bir viloyat uchun "start-up" vazifasini bajara oladi. Chunki bu soha yaxshi daromad manbayi bo'lish bilan birga, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishda ham o'z o'rniga ega. Bu sohada faoliyat yurituvchi tadbirkorlar va xizmat ko'rsatish sohasi vakillarining ko'payishi qo'shimcha ish o'rni yaratishiga olib keladi. Turizm sohasi rivojlanib borishi, horijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talabni ham ortishiga olib keladi va horijiy tillarni yaxshi bilgan mahalliy aholi uchun yaxshi daromadli ish o'rinlarini yaratadi. O'tgan 2024- yil boshidan buyon O'zbekistonga sayyohlar oqimi sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu esa Respublikamiz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan valyuta oqimi, turistlar hisobidan yana ham oshayotganini bildiradi. Ma'lum qilinishicha, O'zbekistonga 2024-yilda jami- 8.2 million nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan. Shundan:

ayollar- 4077.1 ming nafar (49,8%), erkaklar- 4104.3 ming nafar (50,2) ni tashkil etgan. Ma'lumot uchun, O'zbekistonga 2023- yilning yanvar –dekabr oylarida 6.6 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan. 2024 –yilning yanvar –mart oylarida jami- 1 mln 519,3 ming nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda kelgan bo'lsa, besh oyda esa – 2.8 milliondan ortiq chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurishgan. Bularning -10.6 ming nafari AQSH dan tashrif buyurishgan. 6-oyga kelib- 3.5 milliondan ortiq chet el fuqarolari turistik maqsadda tashrif buyurishdi. Ushbu ko'rsatkichlar ham yurtimizga qiziqish ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Chet eldan keladigan sayyohlar asosan ser daromad kishilar, firma va zavod egalari kabi katta kapital egalari bo'lishini inobatga olsak, turizm horijiy investitsiyalarni jalb etishga ham yordam berishi mumkin. Horijiy sayyohlarning o'z yurtiga borib O'zbekiston haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashishi ham yurtimiz haqida ijobiy fikrlar shakllanishiga yordam beradi. Albatta qaysi hududda turistik inshootlar, akvapark va basseynlar qurilishi rejalashtirilsa uning atrof hududlarini tadbirkorlarga bo'lib berish rejasi ko'rib chiqiladi. Bu esa tadbirkorlik faoliyati kengayishi, yangi savdo va hizmat ko'rsatish sohalari yaratilishiga olib keladi. Namangan viloyatining ham horijiy sayyohlarni jalb etuvchi o'ziga hos jihatlari yetarlicha. Namangan shahrida g'ayrioddiy suvinerlar yasaydigan hunarmandlar ko'p. Namangan bo'ylab sayr qilar ekansiz, juda ko'plab ustahonalarni uchratish mumkin ularning har biri o'ziga hosdir. Kulolchilik ustalari ushbu shaharga hos bo'lgan betakror uslubda bo'yalgan laganlarni yaratadilar. Mahalliy matolar alohida ajralib turadi, chunki ular asosan to'liq paxtadan yasalgan bo'ladi. Horijiy va mahalliy sayyohlarni o'ziga jalb etishda qadimiy va hunarmandchilik yaxshi rivojlangan Chust tumani haqida ham aytib o'tish lozim. Bu yerda temirchilar sulolalari mavjub bo'lib, ular tomonidan dunyoga mashhur pichoqlar ishlab chiqariladi. Ular turli xil shaklda, eng oddiyidan tortib, ancha qimmatiga qadar ishlab chiqariladi[5]. Viloyat turizm salohiyatini horijiy

mamlaktlarda ham ko’rgazmalar orqali namoyish etish turistlar oqimi ko’payishiga yordam bergan bo’lardi.

Xizmatlar sohasini ayniqsa, turizm xizmatlarini jadal rivojlantirish viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi. Chunki hizmatlar iqtisodiyotiga o’tish jarayoni zamonaviy milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligining asosiy omilidir. Turizm ham hizmat ko’rsatish sohasiga tegishli bo’lib, iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo’lganligi sababli mamlakatimizda ham uning yuqori sur’atlar bilan o’sishi, katta hajmdagi valyuta tushumlarini ta’minlash orqali iqtisodiyotga ijobiy ta’sir etib, turizm industriyasining rivojlanishiga yordam beradi. Bizning takliflarimiz o’rnida Chust tumanini turizm markaziga aylantirish mumkin. Bunda “Mavlono Lutfulloh” istirohat bog’ida har –xil muzeylar tashkil etish do’ppi muzeyi, kulolchilik muzeylari yaratish va mavjud pichoq muzeyini kengaytirish, ularni savdosini yo’lga qo’yish ham mumkin. Nafaqat tumanning balki Farg’ona vodiysining eng qadimiy qadamjolaridan biri bo’lgan “Bibi ona” ziyoratgohi va Varzik mahallasidagi “Teshiktosh” va kuzatuv maydoniga ega qoyatoshlarga sayohatlar tashkil etish bularni tumanning tashrif qog’oziga aylantirish mumkin. Shuningdek Namangan shahridagi “Afsonalar vodiysi” bog’ini viloyatni sayyohlarni chorlovchi nuqtasi sifatida ko’rsatish mumkin. Turizm sohasi viloyat iqtisodiyoti uchun kam harajat va ser daromad soha hisoblanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lum qilishicha, turizmni rivojlantirish maqsadida 2024 yilda bir qator ishlar amalga oshirildi. Shu doirada davlat byudjetidan turizm sohasi uchun jami 117 milliard so‘m ajratilgani ma’lum qilindi. Bu mablag‘lar tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirildi. Jumladan, xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ‘ib qilish uchun 50 milliard so‘m, yangi dor yo‘llar qurilishi va jihozlanishi xarajatlarining bir qismini qoplashga 10 milliard so‘m, yangi mehmonxonalar qurilishi va jihozlanishi xarajatlari uchun 4 milliard so‘m, UNWTO shafeligidagi Xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kampusi qurilishiga

10 milliard so‘m va boshqa xarajatlar uchun 43 milliard so‘m ajratilgan. Yuqorida aytib o’tkanimizdek, 2024 yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijlik turistlar soni 10,28 million nafarga yetdi. Bu 2023 yildagi 6,63 million nafarga nisbatan 3,65 millionga yoki 55 foizga ko‘pdir. Shuningdek, ichki turizmda ishtirok etganlar soni 22,67 million nafarni tashkil qildi, bu esa 2023 yilga nisbatan 2 million nafarga yoki 10 foizga o‘sishni anglatadi. Xorijlik sayyohlar hisobiga 2024 yilda turizm xizmatlari eksporti 3 milliard 489 million AQSH dollariga yetdi. 2023 yilda bu ko‘rsatkich 2 milliard 143 million dollarni tashkil qilgan. Ya’ni, 1 milliard 346 million dollar yoki 62 foiz o‘sish kuzatildi[6]. Ushbu ma’lumotlardan o’rinib turibdiki, yurtimizda turizm sohasi yildan yilga rivojlanib bormoqda.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, turizm bu bizning Respublikamiz uchun rivojlanib borayotgan va istiqbolli soha hisoblanadi. Ayniqsa Respublikamizda yashil energiyadan keng foydalanishga e’tibor berilishi, yashil makonlar, o’rmon va tog’ bag’ridagi dam olish maskanlari ko’payishi mamlakatda “Yashil” iqtisodiyotni rivojiga ijobiy ta’sir etadi. Chet davlatlardan horijiy sayyohlar oqimini ko’paytirish uchun horijiy mamlakatlarda O’zbekiston turizm salohiyatini targ’ib qilishni kuchaytirish lozim. Bunda turizm qo’mitasi va uning hududlardagi bo’limlari va O’zbekistonning chet eldagi elchixona, konsullik va vakolathonalari o’rtasidagi aloqani rivojlantirish kerak. Yuqorida keltirilgandek, shu maqsadlarda 50 mlrd so’m mablag’ ajratilgani bejiz emas. Ichki turizmni rivojlantirish uchun esa sayyohlik firmalari bilan davlat va hususiy tashkilotlar aloqalarini yaxshilash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yangi O’zbekiston gazetasi. 12- fevral, 2021 –yil.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston -2030” strategiyasi to’g’risida. 11.09.2023 yildagi P.F- 158- son farmoni.

3. Isadjanov A.A. Iqtisodiyot Fanlari doktori, professor. “Barqaror turizm rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va ustuvorliklari”. “Ekonomika va sotsium” №6 (121) -1 2024.
4. Demokrat.uz
5. Daryo.uz / Madina Nurman
6. Uza.uz